



**YURTIMIZ TARIXIDA AYOLLARNING YETUKLIKKA INTILISHI,
ILMGA BO‘LGAN EXTIYOJ**

**Ismoilova Nilufar Bahodirovna Urganch Ranch texnologiya
universiteti o‘qituvchi-stajyori**

Yurtimiz tarixida yuz bergan turli jarayonlar millatimiz ayollari taqdiriga ta'sir etmay qolmadi. Ona yurtimiz, millatimiz ravnaqi, ilmu ma'rifati yo'lida jon bergan bobolarimiz va momolarimiz nomlarini takror-takror tilga olgan daqiqalarda ularning ezgu g'oyalari qalbimizda tirilgani sayin o'zimiz ham ana shu buyuk kuch Ona Vatan sha'ni, qadri uchun ilm olishimiz, kurashishimiz, yashashimiz va ijod qilishimiz kerakligini yanada chuqurroq anglay boshlaymiz. Ajdodlarimiz onalarga millat egasi sifatida qarashgan. Axir buyuk insonlarni ilm-ma'rifati yuksak onalar yetishtiradi. Millatimizda katta olima, shoira va faqiha ayollar ko'p bo'lgan. Jadid ayollar mavzusi esa alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Eng avvalo, jadid bobolarimiz o'sha zamon kishilari ongida xotin-qizlarga bo'lgan alohida hurmat va ehtirom tuyg'usini uyg'ota bilgan. Ular millat farzandlarini "qo'li to'qmoq, boshi pahmoq" ezilgan ayollar tarbiyalashini istamagan. "Biz qizlarimizga o'g'il bolalardan kam e'tibor qaratmasligimiz kerak"ligini qayta-qayta ta'kidlashgan.

Yana bir misol tariqasida Hamza Hakimzoda Niyoziy (Nihoniy taxallusi bilan ijod qilgan)ning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" asari qahramoni Maryam timsolida ham ko'rishimiz mumkin. Maryam ilmga tashna ayol timsoli. "Yangi saodat" asarida Olimjonning m a'rifat tufayli baxtli hayotga erishuvi va uning o 'z baxtidan boshqa kishiiam ing ham bahramand bo'lishini tasviriagan bo'lsa, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" fojiasida m a'rifatli insonning jaholat va g'aflat zindonidagi fojiali taqdirini ko'rsatishni maiqsad qilib olgan. Ushbu asar janrini Hamza " Turkiston maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi" deb ataydi. Dramaturg pyesaning dastlabki

sahnasidayoq qahramonlarning o'zlariga munosib bo'lmagan, ular qalbidagi muhabbat gullarini xazon qilishga tayyor bir muhitda yashayotganini ko'rsatadi. Shu tarzda pyesaning avvalidayoq eskicha qarashlar ta'siridagi ota-onalar bilan ulardan ilgari ketgan va o'z zamoniga sig'may qolgan yoshlar o'rtasidagi ziddiyat nish uradi. Voqealar rivojlanishi bilan bu konflikt taranglashib, oxirida kamonning tortilgan voyidek uchib boradi-da. har ikkala qahramonni - Mahmudxon bilan Maryamxonni halok qiladi.[1]

Ma'rifatli ayol tushunchasi qalbimizga juda ham ma'qul keladigan tushuncha desak mubolag'a bo'lmaydi. Agar oilaning ayoli ma'rifatli bo'lsa bu xonadonda xayru baraka, xotirjamlik, fayz, saranjomlik, ahillik hamroh bo'ladi. Ma'rifatli ayol bo'lish uchun har bir ayol va onalarimiz o'z ustlarida ko'proq ishlab o'zini-o'zi isloh qilmog'i darkor. Avvalambor har bir ayol bolalik va o'smirlik davridanoq ma'rifatga intilib, ilm olib yashashni o'ziga maqsad qilib olishi ahamiyatlidir. Agar bir insonni tarbiyalamoqchi bo'lsang o'g'lingga yaxshi tarbiya ber, agar jamiyatni tarbiyalamoqchi bo'lsang qizingni ma'rifatli qilib tarbiyala, degan naql bor xalqimizda. Chunki qiz bola bo'lajak ona u o'zi kabi farzandlarini ham ma'rifatga yetaklaydi.[2]

Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda gender tenglik masalasi barcha davlatlarda muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Zero, xotin-qizlarning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi faol ishtiroki mamlakat barqarorligi va farovonligining kafolati hisoblanadi. Bu borada BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish: "Qaerdaki siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda" deb ta'kidlagan. Ushbu so'zlarning tasdig'i sifatida dunyoning ayol rahbarlari – Litvani 10 yil davomida boshqargan Dalya Gribauskayte, Xorvatiyani 5 yil davomida boshqargan Kolinda Grabar-Kitarich, 16 yil davomida Germaniyaning Federal kansleri bo'lgan Angela Merkel, 2017 yildan buyon Singapur prezidenti sifatida faoliyat yuritib kelayotgan Halima Yoqub o'z faoliyati

davomida davlatning iqtisodiy o'sishini ta'minlagani, kuchli ijtimoiy siyosat olib borgan, korrupsiyaga qarshi qurash ishiga bemisli hissa qo'shganini misol keltirish mumkin.[3]

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ayollarning jamiyatdagi o'rni va roliga yuqori baho berib, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, xotin-qizlarimizning bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda, sog'lom farzand tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish davlatimiz va jamiyatimizning doimiy e'tiboridagi eng ustuvor vazifa ekanligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ma'lumki, millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Mamlakatimizda yurtimiz xotin-qizlarining jamiyatdagi o'rni, ularning oilaga bo'lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g'oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda.[2]

Xulosa qilib aytganda millatimiz ayollari yillar davomida ilmga intilgan. O'z haq-huquqlari uchun kurashgan. Yurtimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda mustahkam qonuniy asoslar yaratildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Jadidchilik islohot yangiilanish, Mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash (Turkiston va Buhoro Jadidchiligi tarihiga yangi chizgilar). Davriy to'plam №1,-T "Sharq", 1999.
2. "Yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan taraqqiyoti va innovatsion rivojlanish jarayonidagi o'rni" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjuman BUXORO-2024.
3. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11886>